S.YUDAKOVNING "MAYSARANING ISHI" OPERASIDA MULLADO'ST VA HOJIDARG'A OBRAZI

Orifjonov Jahongir Soibjon o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Mudofa vazirligi
Markaziy ashula va raqs ansambli xonandasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada atoqli o'zbek kompozitori Sulaymon Yudakovning "Maysaraning ishi" hajviy operasidagi Mullado'st va Hojidarg'a obrazlarining musiqiy-badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Mazkur obrazlarning opera dramaturgiyasidagi o'rni, xarakteri va individual musiqiy ifoda vositalari o'rganiladi. Mullado'st obrazining musiqiy talqinida o'zbek xalq qo'shiqchilik an'analariga xos kuy-ohanglar, kuplet shakli, sodda va ta'sirchan vokal ifoda vositalarining qo'llanilishi yoritiladi. Hojidarg'a obrazining xarakteri esa leytmotiv, rechitativ, vokal-dialog, kuplet qo'shiq va ansambl sahnalari orqali ochib berilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, har ikki obrazning hajviy mazmunni yuzaga chiqarishdagi ahamiyati, vokal ijrochilik imkoniyatlari hamda S. Yudakovning musiqiy dramaturgiyasidagi o'ziga xos jihatlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida Mullado'st va Hojidarg'a obrazlari orqali kompozitor qahramonlarning xarakteri, ijtimoiy mavqeyi va voqealarga munosabatini yorqin musiqiy vositalar yordamida ifodalagani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Hajviy opera, musiqiy obraz, vokal ijrochilik, musiqiy dramaturgiya, leytmotiv, rechitativ, ariya, kuplet, vokal ansambl, o'zbek xalq musiqasi, milliy ohang, opera san'ati.

"Opera va faqat opera sizni odamlarga yaqinlashtiradi,
musiqangizni haqiqiy tomoshabinga o'xshatadi,
sizni nafaqat alohida davralarning, balki qulay
sharoitlarda - butun xalqning mulkiga aylantiradi"

Pyotr Ilich Chaykovskiy

"Maysaraning ishi" Alisher Navoiy nomidagi akademik katta opera va balet teatr jamoasi kompozitor Sulaymon Yudakov, shoir - dramaturg Sobir Abdulla va M.Muhamedovlar hamkorlikda "Maysaraning ishi" nomli hajviy operani 1959-yilning 6-yanvarida tomoshabinlarga havola qildi. Opera premyerasi juda katta muvaffaqiyatlar bilan o'tdi.

Respublikamizning madaniy - ma'naviy hayotida ulkan voqeaga aylandi. Operaning sahnalashtirilishida ishtirokchilar: dirijor Fazliddin Shamsuddinov, baletmeyster Mukarrama Turg'unboyevaga, asosiy rollarni ijro etuvchilar:

Maysara - Halima Nosirovaga, Oyxon - Saodat Qobulova, Cho'pon - Sattor Yarashevga, Mulla do'st - Karim Zokirovga, Qozi - Xusan Ismoilovga, Hoji Darg'a - Jamol Nizom Xo'jayevga, Hidoyat - Mixail Davidov. Mazkur operani, bir necha avlodlar ko'rish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

"Maysaraning ishi" operasining musiqiy tili yorqin milliy ohangdorligi, jo'shqin - jozibadorligi va musiqiy dramaturgiyasining badiiy baquvvatligi bilan alohida ajralib turadi. Musiqa muallifi S.Yudakov atoqli shoir va bastakor Hamzaning shu nomli pyesasi asosida yozilgan librettoga musiqa bastalashda operada ishtirok etuvchi asosiy personajlami xatti - harakat va munosabat, niyatlaridan kelib chiqqan holda yondashib, ijobiy va salbiy obrazlami har biriga, alohida o'zbek xalq qo'shiq, lapar va yallalarga juda yaqin turadigan, original, yorqin "Musiqiy portret"lar yaratgan. Ya'ni hajviy opera janming barcha tipik xususiyatlariga yondashib, kompozitor tez harakat rivojlanuvchi hajviy epizodlar, sahna voqealarini

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

uzviy ravishda o'zgarishlari va bog‘lanishlari, burro - burroli rechitativ dialoglami mantiqligi, yorqin - milliy xushchaqchaq musiqiy sadolami ta’sirchanliklari bilan tomoshabin - tinglovchilami maflun qildi.

Opera musiqiy dramaturgiyasining rivojlanish jarayonida, partituraga kiritilgan ariyalar, duet, trio, kvartet, kvintet, vokal ansambllar, ommaviy xorlar, o‘rinli joyda jaranglaydi. Simfonik orkestr vokal nomerlarga birgina jo‘r bo‘lib qolmasdan, u ayrim epizodlarda, mustaqil ravishda muhim rol o‘ynaydi. Yuqorida zikr qilingan musiqiy alomatlar mazkur hajviy operaning ta’sirli mavqeini mukammal ravishda boyitadi. Sulaymon Yudakovning “Maysaraning ishi” birinchi hajviy operasi, jahonga mashhur bo'lgan hajviy operalami qatoridan munosib o‘rin oldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki mazkur operada ham opera “buffa”dagi kabi barcha tipik xususiyatlari to‘la - to‘kisdir. Ya’ni ohangdor ariyalar, vokal - ansambllar, ommaviy xorlar, ohangdor va “secco” (tez harakatda so‘zlash) rechitativlar orkestr sadolari bilan hamohang birlikda jonli va ildam sur’atda sahnada sodir bo‘layotgan jiddiy va hajviy vaziyatlar, mukammal ravishda tasvirlanadi.

“Maysaraning ishi” operasi avval kirish cholg‘u musiqa, keyin muqaddima bilan boshlanadi. Simfonik orkestrga kiritilgan o‘zbek xalq sozlaridan: nog'ora, doira, rubob, kamayni trambon va valtomalarda imitatsiya qilishlari tufayli muqaddimada ijobiy obrazlardan: Maysara, Oyxon, Cho‘pon Ali, Mulla Do‘st, salbiy obrazlardan: Qozi, Hoji Darg‘a va Hidoyatlami turli tomonlarini xarakterlovchi “leytmotiv”lar operani rivojlanish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Muqaddimaga kiritilgan “leytmotiv”lar jaranglash jarayonida har bir personajni qotib qolgan haykal siymosi namoyon bo‘ladi, (sahnada aktyor oddiy ovoz bilan) ulaming qiyofalarini ta’riflaydi, mavzu oxirida ular jonlanib chiqib ketadilar. Ya’ni har bir personajning xarakteriga, yurish - turishlariga, xatti - harakatlariga xos leytmotivlar orkestr sadosida jaranglashi tufayli tomoshabin - tinglovchilar ulaming qiyofalari bilan oldindan tanishadilar. Aytish joizki, operaning rivojlanish jarayonida jiddiy lavhalar va ayniqsa hajviy epizodlar mavjud, yengil, hushchaqchaq musiqalar va hiyla-nayranglar, oddiy va juda tez so‘zlash rechitativ - dialoglar bilan ham mavjud.

Operaning bosh qahramoni zakovatli, irodasi kuchli Maysaraning musiqiy obrazini tasvirlashda S.Yudakov atoqli shoir, dramaturg va bastakor Hamzaning “Hoy, ishchilar” mashhur qo‘shig‘ini “leytmotiv” sifatida operaga kiritgan. Albatta, Maysarani inqilobchi rahbar qilib ko‘rsatishga emas, balki adolat uchun, inson huquqini hamoya qiluvchi inson sifatida gavdalantiradi. Umuman, Maysara obrazi, uning ikki sevishgan yoshlaming to‘ylarini o‘tkazib, ulami qovushtirisrh niyatidagi amaliy harakatlari va to‘yga to‘sqinlik qilayotgan kimsalarga qarshi kurashda ruhiy kechinmalari ariya, arioza, qo‘shiq, vokal - ansambl va ommaviy xor sahnalarda insoniy fazilatini turli qirralari to‘la * to‘kis ochilib boradi. Opera uch parda ikki ko'rinishdan iborat.

Operaning birinchi pardasi Maysaraning kichkina, ko‘rimsiz hovlisida o‘tadi. Go‘zal qiz Oyxon, o‘zi yakka uy yumushlarini bajarish jarayonida “Ishqida yondim” nomli ma’yusli - lirik ariyasida Cho‘pon Aliga bo‘lgan ehtirosli muhabbatini izhor etadi. Mazkur ariya o‘zbek xalq ashula shaklida, do minorda yozilgan. U oddiy garmonik akkordlar, jo‘r bo‘lgan orkestmi ravshanli faktura,sinkopalar bilan boyitilganligi tufayli Oyxonning musiqiy obrazi yorqin ohangdor milliy ruhi bilan namoyon bo‘ladi. Oyxonning ariyasi tugashi bilan, ishdan qaytayotgan Cho‘pon Ali uzoqdan shodu xurramlik bilan, quvnoq, jozibali ariya ijro etib uyga keladi. Oyxon va Cho‘pon Ali bir - birlari bilan hazillashadilar, Cho‘pon Ali jiddiy so‘zlashish niyatida “Kel, so‘zlashaylik” nomli ariyada izhor etadi.

Mazkur ariya orkestr jo‘rligida qisqa kirish musiqa bilan boshlanadi. Orkestming yorqin fakturasi, oddiy akkordlar bilan boyitilgan ariyada Cho‘pon Ali sevgilisi Oyxonni butun diqqat - e’tiborini o‘ziga tortadi. Ikki sevishganlar bir - birlariga boMgan muhabbat his - tuyg‘ularini izhor etish jarayonida, tez

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

harakatli valssimon sho‘x musiqa sadosida ular hazillashib, bir - birlarini quvlab, goh hovlida, goh chorbog‘ tomon chopishib ketayotganlari paytida, favquloddan simfonik orkestr sadosida vahimali tremolo akkordlar bilan birlikda pasayuvchi xrammatik oktava tovushlami siljishida dahshatli Qozini va jangovor harakatli Hoji Darg‘ani “leytmotiv”lari nomoyon bo‘ladi.

Atoqli kompozitor Sulaymon Yudakovning “Maysaraning ishi” operasida Mullado’st obrazi operada 50 yoshni qarshilagan, Qozi kalonning kotibi sifatida Qozi va Hoji Darg’aning kirdikorlaridan voqif kishi obrazida namoyon bo’ladi. Operaning muqaddimasida ham Mullado’stning “Qarilik yuki ezdi yelkamni….” deb boshlanadigan misralarning musiqiy kuy yo’li qo’llanilganligini ko’rishimiz mumkin.



Kompozitor Mullado’st obraziga yuqoridagi musiqiy leytmotiv mavzuni kiritgan. Muqadimmada lad-tonal nuqatayi nazarda musiqiy mavzu biroz o’zgaradi. Kirish qismida A-miksolidiy tonalligida, 5/4 o’lchovida, Allegro molto tempida ijro etiladi. Ijodkor bu bilan qahramonning ichki musiqiy ohangini operaning muqaddimasida tinglovchiga tanishtirish bosh maqsad qilib belgilangan desak, ayni haqiqatni aytgan bo’lamiz.

Operada mavjud mansabdor Qozining uy xizmatkori Mullado’st obrazi esa operadagi o’zaro ziddiyatli va qarama-qarshi obrazlarni bog’lab turuvchi, hamda voqealar rivoji davomida Maysara bilan keyingi hayot yo’lini bog’lash mumkin bo’lgan qahramon sifatida alohida diqqatga sazovordir.

Uning ariya va ko’plab rechitativlari “Bilakuzuk” xalq qo’shig’i asosida sahnabop qilib qayta ishlangan. O’zbekiston xalq artisti Karim Zokirov Mullado’st partiyasini ijro etish chog’ida o’zining aktyorlik mahoratini yangi qirralarini kashf etdi. Karim Zokirovning Mullado’sti - sodda, samimiy, jozibali, oliyjanob inson, shu bilan birga tushkulikka tushmaydigan, o’z ustidan ham, zo’ravonlar ustidan ham kulib o’zini xursand qilib yuradi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Mullado'st- Karim Zokirov bir halol-pokiza kelin bo'lsa deb orzu qiladi, tinch va osuda hayot kechirishni o'ylaydi, Maysaraga ko'ngil qo'yadi. Xullas, aktyor Mullado'stning yolg'izligiga uyrg'u beradi, xalqning aql-zakovati, kelajakka umidvorligi, quvnoq kayfiyatini o'zlashtirgan timsol maqomida gavdalantiradi. Bugungi kunda esa mazkur qahramon rolini O'zbekiston xalq artisti Avaz Rajabov talqinida ko'rishimiz mumkin.

Mullado'stning kupletlarida tonal jihatida o'zgarish mavjud. B-dur tonalligida, 5/4 o'lchovi, Allegro non troppa tempida musiqiy matoda aks etadi. Qahramonning ichki psixologik xarakteri musiqada yorqin o'z ifodasini topgan. Mazkur musiqiy asarda Mullado'stning qiyofasi yaqqol aks etadi. Mehnatdan va Qozi kalonning yumushlarini bajarib, uylanmasdan o'tayotgan ushbu obrazning nolalari musiqada haqqoniy tasvirlangan.

Operadan o'rin olgan Hojidarg'a va Mullado'st ijrosidagi duet ham xalq nazariga tushgan mashhur buxorocha "Lali Badahshon"ni eslatadi. Kompozitor ushbu qo'shiqdan foydalanar ekan, unda ritmik jihatdan biroz o'yinoqlikni musiqada aks ettirgan. Qo'shiqning har ikkala varianti ham raqsbopligi, kuychanligi bilan bir-biriga o'xshab ketadi. Bunga ko'a Hojidarg'a Mullado'stning ustidan kulib kuylangan qo'shiqda ritm ham munosib aks ettirilgan .

Atoqli kompozitor Sulaymon Yudakovning "Maysaraning ishi" hajviy operasining o'zbek opera san'atida alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda ham g'oyaviy mazmun jihatidan dolzarblikka ega mazkur opera juda ko'p iste'dod vakillarining ijro repertuarlaridan munosib o'rin egallagan.

Operada mavjud qahramonlar Oyxon, Cho'pon, Mullado'st, Hojidarg'a, Qozi, Maysara kabi obrazlarning musiqiy leytmotiv mavzulari yorqin bo'yoqlarda eks ettirilgan. Mullado'st obrazini tasvirlashda ijodkor qahramonning xarakteri, fe'l-atvori, tabiati, ko'rinishidan kelib chiqqan holda musiqiy leytmotiv mavzularni kiritganligini ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan bir qatorda, Mullado'stning ariya, kupletlari so'zlashuv uslubidagi rechitativ ko'rinishida namoyon bo'ladi. Hojidarg'a obrazi haqida to'xtaladigan bo'lsak, mazkur salbiy qahramonning ichki ohang palitrasi past registrdagi tovushqatorga asoslanadi. Uning ichki dunyo qarashi, xarakter temperamenti kompozitor tomonidan o'rinli ravishda, haqqoniy tasvirlangan.

Shu sababdan operaning ilk taqdimotidan bugungi kunga qadar mazkur opera opera teatrlari sahnasidan tushmay keladi. Musiqiy partituraga kiritilgan ariya, duet, trio, kvartet, kvintet, vokal ansambllar, ommaviy xorlar o'rinli joyda yangraydi. Simfonik orkestr vokal nomerlarga jo'rlik vazifasini bajaribgina qolmay, balki ayrim epizodlarda mustaqil asar sifatida sadolanadi.

Operaning vokal partiyalari va orkestr partiturasi kompozitorga musiqali sahna asarining hal qiluvchi o'rinni ifodalaydi. Bu asar emotsional mazmuni chuqurligi sababidan, sahnaviy ta'sirchanlikni oshiradi. Tashqi ifodaviy vositalarni dinamitsiyalash omilini ko'rishimiz mumkin. Mazkur musiqiy-sahnaviy asar ijodiy meros sifatida asrlar davomida teatrlar sahnasidan tushmasligiga ishonamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. И.Способин. Музика шакли. Тошкент:Ўқитувчи, 1982 й.
2. Очерки истории музыкальной культуры Узбекистана. Выпуск 1. Ташкент: Ўқитувчи, 1968 г.
3. Музыкальная культура Узбекской ССР. Сборник статей. Москва: Музыка, 1981 г.
4. T.G'ofurbekov. O'zbek musiqa madaniyati. Toshkent: 2019 y.
5. С.Юдаков. Майсаранинг иши операси. Клавир. Тошкент:. 1985 йил.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.